



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2024- yil « 23 » fevral 48 -son

Toshkent shahri

Vazirlik markaziy apparati uchun tovarlar, ishlar, xizmatlar xaridi hamda inventarizatsiyadan o‘tkazish va hisobdan chiqarish bo‘yicha komissiya tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda-Qonun), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3953-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 1999-yil 19-oktabrdagi “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi YEG/17-19-2075-son (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 2-noyabrda 833-son bilan ro‘yxatga olingan, O‘zbekiston Respublikasi BHMS 19-son*) buyrug‘iga asosan

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq:

vazirlik markaziy apparati uchun tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish bo‘yicha komissiya (keying o‘rinlarda-xarid komissiyasi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

vazirlik markaziy apparati balansida bo‘lgan asosiy vositalar va tovar-moddiy qimmatliklarni inventarizatsiyadan o‘tkazish va hisobdan chiqarish bo‘yicha komissiya tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Xarid komissiyasi (S. Buzruksxonov)ga belgilangan tartibda o‘tkaziladigan tanlovning shaffofligini ta’minlash, tanlovda ishtirok etayotgan shaxslar faoliyati va takliflarini har tomonlama o‘rganib, bajarilayotgan ishlar, xizmatlar va taqdim etilayotgan tovarlarning sifatini ta’minlovchi pudratchi va tovar yetkazib beruvchi tashkilotlarning tanlab olinishini tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

3. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (K.Artikov)ga:

Qonunda belgilangan tartibda davlat xaridlarini amalga oshirishni tashkil qilish;

davlat xaridlarini rejalashtirish, davlat xaridlari to'g'risidagi axborotni qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda maxsus axborot portaliga joylashtirish;

tovar-moddiy qimmatliklarni inventarizatsiya qilish jarayonida amaliy ko'mak berish, shuningdek, tovar-moddiy qimmatliklarning kirim qilinishi, topshirilishi va hisobdan chiqarilishini to'g'ri rasmiylashtirishda belgilangan qoidalarga rioya etilishi hamda vazirlik balansidan o'rnatilgan tartibda hisobdan chiqarilishini ta'minlash.

4. Ishlar boshqaruvchisi(Sh.Lutfullayev)ga:

davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillari to'g'risidagi axborotning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;

tanlovda g'olib deb topilgan ishtirokchilar bilan shartnomalar tuzish, shuningdek ularning ijro etilishini ta'minlash;

vazirlik faoliyati uchun xarid qilingan va foydalanishda bo'lgan tovar-moddiy qimmatliklarni belgilangan muddatlarda inventarizatsiyadan o'tkazish shuningdek, xizmat muddatini o'tagan tovar-moddiy qimmatliklarni mazkur buyruqning 2-ilovasida qayd etilgan komissiya a'zolari ishtirokida o'rnatilgan tartibda hisobdan chiqarish va rasmiylashtirish vazifalari yuklatilsin.

5. Xarid turlari, olinayotgan tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiyatiga qarab Xarid komissiyasi tarkibiga tegishli bo'linmalardan mutaxassislar jalb qilinishi inobatga olinsin.

6. Ushbu buyruq qabul qilinishi munosabati bilan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 28-apreldagi 111-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o'rinbosari S.Buzrukxonov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



K.Sharipov

**NUSXA
ASLIGA TO'G'RI**